O‘ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINI HUDUDIY JOYLASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.

Kudratov Muhammad Rustamovich, Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti.

E-mail:mkudratov51@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekistonda sanoat korxonalarini hududiy joylashtirishning hozirgi holati 2025-yil rasmiy statistik ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Hududlar kesimida sanoat mahsuloti hajmi va aholi jon boshiga ishlab chiqarish, Xerfindal–Xirshman va Guver indekslari hisoblanib, ishlab chiqarishning uchta hududda jamlanganligi va hududlararo tafovut darajasi baholangan. Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari va texnoparklarning sanoatdagi o‘rni, samaradorligi hamda infratuzilma bilan bog‘liq muammolari ko‘rib chiqilgan. Tahlil asosida sanoatni hududiy joylashtirishni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, zonalar tarmog‘ini yiriklashtirish va hududiy ixtisoslashuvni ilmiy asoslash taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: sanoatni hududiy joylashtirish, hududlararo tafovut, Guver indeksi, Xerfindal–Xirshman indeksi, maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti, hududiy ixtisoslashuv.

Аннотация. В тезисе на основе официальных статистических данных за 2025 год проанализировано современное состояние территориального размещения промышленных предприятий в Узбекистане. Рассчитаны объёмы промышленного производства и производство на душу населения по регионам, индексы Херфиндаля–Хиршмана и Гувера, оценены концентрация производства в трёх регионах и уровень межрегиональной дифференциации. Рассмотрены роль специальных экономических зон, малых промышленных зон и технопарков, их эффективность и инфраструктурные проблемы. Предложены

приоритетные направления совершенствования размещения промышленности, в том числе укрупнение сети зон и научное обоснование региональной специализации.

Ключевые слова: размещение промышленности, межрегиональная дифференциация, индекс Гувера, индекс Херфиндаля–Хиршмана, специальная экономическая зона, малая промышленная зона, производство на душу населения, региональная специализация.

Abstract. Based on official 2025 statistics, the thesis analyzes the current state of territorial placement of industrial enterprises in Uzbekistan. Regional industrial output, output per capita and Herfindahl–Hirschman and Hoover indices are calculated to assess the concentration of production in three regions and the level of interregional disparity. The role of special economic zones, small industrial zones and technoparks and their infrastructure constraints are examined. Priority directions for improving industrial location are proposed, including zone consolidation and evidence-based regional specialization.

Keywords: industrial location, regional disparity, Hoover index, Herfindahl–Hirschman index, special economic zone, small industrial zone, output per capita, regional specialization.

KIRISH

Sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi mamlakat iqtisodiy makonining tuzilishini, hududlarning daromad darajasini va aholi bandligini belgilaydi. Ishlab chiqarishning bir necha markazda haddan tashqari jamlanishi hududlararo tafovutni chuqurlashtiradi, o‘ta tarqoq joylashuv esa infratuzilma xarajatlarini oshirib, aglomeratsiya samarasini kamaytiradi. Shu sababli sanoatning hududiy tuzilmasini muntazam tahlil qilish mintaqaviy siyosatni asoslashning zaruriy sharti hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sanoat yuqori sur’atlarda rivojlanmoqda: 2025-yilda YaIM real ifodada 7,7 foizga o‘sgani holda yalpi qo‘shilgan qiymatda sanoatning ulushi 26,8 foizga yetdi. Prezidentning 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni bilan maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish

choralari belgilangan [2], 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan esa hududlarni rivojlantirish bo‘yicha strategik hujjatlarni «O‘zbekiston-2030» strategiyasiga muvofiqlashtirish vazifasi qo‘yilgan.

Tadqiqotning maqsadi — sanoat korxonalarini hududiy joylashtirishning hozirgi holatini miqdoriy baholash va uni takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslash. Tadqiqotda 2025-yilgi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida qiyosiy va tuzilmaviy tahlil, jamlanish va tafovut indekslari usullaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Sanoatni joylashtirish nazariyasida ikki qarama-qarshi kuch e’tirof etiladi. Bir tomondan, A. Marshall ko‘rsatganidek, korxonalarning bir hududda to‘planishi malakali ishchi kuchi, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar va bilimlar almashinuvi hisobiga qo‘shimcha samara beradi; P. Krugman bu jarayon o‘suvchi samaradorlik va transport xarajatlari ta’sirida o‘z-o‘zini kuchaytirishini asoslagan. Ikkinchi tomondan, A. Veberning xarajatlar minimumi nazariyasi korxonani xom ashyo va iste’mol bozoriga yaqin joylashtirish zarurligini ko‘rsatadi. M. Porterning klasterlar konsepsiyasi esa bu yondashuvlarni hududiy ixtisoslashuv orqali uyg‘unlashtiradi. Ishlab chiqarishning hududlar o‘rtasida aholiga nisbatan qanchalik notekis taqsimlanganini E. Guver indeksi orqali o‘lchash mumkin:

$$H = \tfrac{1}{2} \cdot \Sigma \, |s_i - p_i|, \qquad (1)$$

bu yerda s_i va p_i — i-hududning mos ravishda sanoat mahsuloti va aholi sonidagi foizdagi ulushi. Indeks 0 dan 100 gacha o‘zgaradi va aholiga mutanosib taqsimlanishga erishish uchun qayta joylashtirilishi lozim bo‘lgan ishlab chiqarish ulushini ko‘rsatadi. Jamlanish darajasi esa Xerfindal–Xirshman indeksi ($HHI = \Sigma \, s_i^2$) orqali baholandi.

2025-yilda respublikada 1 101,1 trln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning hajmi 6,8 foizga o‘sdi. Sanoat mahsulotining 86,0 foizi qayta ishlash sanoatiga, 7,0 foizi tog‘-kon sanoatiga, 6,4 foizi elektr energiyasi, gaz va bug‘ bilan ta’minlashga to‘g‘ri keladi. Qayta ishlash sanoatida oziq-ovqat (19,6 %), mashinasozlik va transport vositalari (18,5 %) hamda to‘qimachilik va kiyim (15,8 %) ishlab chiqarish

yetakchilik qiladi. Faoliyat yuritayotgan 59,8 ming sanoat korxonasining 20,0 foizi oziq-ovqat, 13,8 foizi qurilish materiallari, 10,0 foizi kiyim ishlab chiqaradi. Biroq qayta ishlash sanoatining 79,4 foizi o‘rta-quyi va quyi texnologiyali tarmoqlarga to‘g‘ri kelib, o‘rta-yuqori va yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 20,6 foiz bilan cheklanadi. Sanoat mahsulotining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Sanoat mahsulotining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, 2025-yil


Hudud	Hajmi, trln so‘m	Respublikadagi ulushi, %	Aholidagi ulushi, %	O‘sish sur’ati, %
Toshkent shahri	207,3	18,8	8,3	107,3
Navoiy viloyati	195,2	17,7	2,9	108,3
Toshkent viloyati	170,3	15,5	8,3	106,6
Andijon viloyati	107,9	9,8	9,2	107,2
Farg‘ona viloyati	59,4	5,4	11,0	107,3
Samarqand viloyati	57,8	5,2	11,5	108,5
Buxoro viloyati	53,5	4,9	5,5	107,1
Qashqadaryo viloyati	47,8	4,3	9,7	107,2
Namangan viloyati	40,1	3,6	8,3	109,1
Jizzax viloyati	35,3	3,2	4,1	114,3
Xorazm viloyati	34,3	3,1	5,4	108,4
Qoraqalpog‘iston Resp.	29,1	2,6	5,4	105,3
Sirdaryo viloyati	26,3	2,4	2,5	108,7
Surxondaryo viloyati	18,8	1,7	7,9	109,3
Respublika	**1 101,1**	**100,0**	**100,0**	**106,8**

Muallif tomonidan tuzilgan.

Hisob-kitoblar sanoatning hududiy tuzilmasida uchta asosiy xususiyatni ko‘rsatadi. Birinchidan, ishlab chiqarish yuqori darajada jamlangan: aholining 19,5 foizi yashaydigan Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari sanoat mahsulotining 52,0 foizini beradi, hududlar bo‘yicha HHI 1191 ni tashkil etib, teng taqsimlangandagi qiymatdan (714) 1,7 baravar yuqori. Hudud ichidagi jamlanish ham yuqori: masalan, Buxoro viloyati sanoat mahsulotining 42,9 foizi bitta — Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri keladi .

Ikkinchidan, hududlararo tafovut keskin: Guver indeksi 34,2 ga teng, ya’ni aholiga mutanosib taqsimlanishga erishish uchun sanoat ishlab chiqarishining qariyb uchdan bir qismini qayta joylashtirish talab etiladi. Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti Navoiy viloyatida Surxondaryo viloyatiga nisbatan 28 baravar yuqori, 14 ta hududdan 10 tasida esa respublika o‘rtachasidan past (1-rasm).

Uchinchidan, sanoat tuzilmasi tabiiy resurslarga kuchli bog‘liq: Navoiy viloyatining yuqori ko‘rsatkichi tog‘-kon va metallurgiya korxonalari, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining sanoati esa asosan neft-gaz tarmog‘i bilan bog‘liq. Aholisi zich Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga ishlab chiqarish respublika o‘rtachasining yarmidan ham past. Jizzax, Surxondaryo va Namangan viloyatlari respublikadan 2,3–7,5 foiz punkt tezroq o‘smoqda, biroq bu tafovutni qisqa muddatda bartaraf etish uchun yetarli emas.



1-rasm. Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsuloti, 2025-yil

Muallif tomonidan tuzilgan.

Sanoatni hududiy joylashtirishning asosiy institutsional vositasi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalaridir. 2025-yil 1-oktabr holatiga respublikada 31 ta maxsus iqtisodiy zona (1 070 korxona), 417 ta kichik sanoat zonasi (3 199 korxona), 32 ta texnopark (3 381 korxona) va 353 ta klaster faoliyat yuritgan. 2025-yil yanvar–sentabr oylarida maxsus iqtisodiy zonalar 45,2 trln so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 42,7 foiz ko‘p), kichik sanoat zonalari 13,4 trln so‘m, texnoparklar 1,7 trln so‘m sanoat mahsuloti ishlab chiqargan, bu respublika sanoat mahsulotining taxminan 7,8 foiziga teng.

Zonalar o‘rtasida samaradorlik keskin farq qiladi: maxsus iqtisodiy zonalarda bir korxonaga o‘rtacha 42,2 mlrd so‘m mahsulot to‘g‘ri kelgani holda, kichik sanoat zonalarida bu ko‘rsatkich 4,2 mlrd so‘mga teng; kichik sanoat zonasida o‘rtacha 7–8 ta korxona, bir korxonada esa 12 nafar xodim faoliyat yuritadi. Yana bir muammo infratuzilma yetishmasligi: 2021-yilda erkin iqtisodiy zonalarning 8,8 ming gektar maydonidan 4,9 ming gektari bo‘sh bo‘lib, uning 65 foizida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari mavjud emas edi; 2022-yilda sanoat zonalarida 6,6 ming

gektar yer foydalanilmay yotgani qayd etilgan. PF-41-son Farmon bilan yangi zonalarni faqat infratuzilma mavjud yoki uni yaratish iqtisodiy asoslangan hududlarda tashkil etish, yer uchastkalarini investitsiya majburiyatlari bilan elektron auksion orqali berish va barcha zonalarni xatlovdan o‘tkazish belgilandi.

Shunday qilib, sanoatni hududiy joylashtirishning hozirgi holati quyidagi muammolar bilan tavsiflanadi: ishlab chiqarishning poytaxt aglomeratsiyasi va resurs hududlarida jamlanishi; aholisi zich agrar hududlarda sanoat salohiyatining past darajasi; sanoat tuzilmasida quyi texnologiyali tarmoqlarning ustunligi; kichik sanoat zonalarining maydalashganligi va zonalarning muhandislik infratuzilmasi bilan to‘liq ta’minlanmaganligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi jadal o‘sayotgan bo‘lsa-da, uning hududiy tuzilmasi notekisligicha qolayotganini ko‘rsatdi: uchta hudud sanoat mahsulotining yarmidan ko‘pini beradi, Guver indeksi 34,2 ga teng, aholi jon boshiga ishlab chiqarishdagi farq 28 baravarga yetadi. Sanoatni hududiy joylashtirishni takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni taklif etamiz:

1. Hududiy ixtisoslashuvni ilmiy asoslash: har bir hudud uchun joylashuv koeffitsiyenti asosida ixtisoslashuv xaritasini ishlab chiqish va uni «O‘zbekiston - 2030» strategiyasiga muvofiqlashtiriladigan hududiy strategiyalarga kiritish.

2. Zonalar tarmog‘ini yiriklashtirish: xatlov natijalariga ko‘ra kichik va samarasiz zonalarni infratuzilmasi to‘liq bo‘lgan yirik sanoat zonalariga birlashtirish, yangi zonalarni «avval infratuzilma» tamoyili asosida tashkil etish.

3. Zonalardagi har bir gektar yerdan olinadigan qo‘shilgan qiymat, soliq va bandlik ko‘rsatkichlarini har yili hisoblab, e’lon qilib borish.

4. Aholisi zich agrar hududlarda (Samarqand, Farg‘ona, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo) qishloq xo‘jaligi xom ashyosini chuqur qayta ishlovchi va mehnat sig‘imi yuqori tarmoqlarni ustuvor joylashtirish.

5. Resurs hududlarida (Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo) xom ashyoni qayta ishlash zanjirini uzaytirish: gaz kimyosi, metallurgiya mahsulotlarini qayta ishlash va mahalliy yetkazib beruvchilar parklarini rivojlantirish.

6. Hududiy sanoat siyosati natijalarini Guver indeksi, HHI, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti va o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi (BRM 9.b.1) ko‘rsatkichlari orqali monitoring qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-fevral 2026-yil PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-8050769.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4-mart 2025-yil PF-41-son “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-7420262.
3. Marshall A. Principles of Economics. - London: Macmillan, 1890.
4. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990.
5. Weber A. Über den Standort der Industrien. - Tübingen: J.C.B. Mohr, 1909.
6. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. - 1991. - Vol. 99, № 3. - P. 483–499.
7. Hoover E.M. The Measurement of Industrial Localization // The Review of Economic Statistics. - 1936. - Vol. 18, № 4. - P. 162–171.
8. Isard W. Methods of Regional Analysis: An Introduction to Regional Science. - Cambridge (MA): MIT Press, 1960.
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari. Yalpi ichki mahsulot, 2025-yil yanvar–dekabr // https://stat.uz.

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari. Sanoat ishlab chiqarishi, 2025-yil yanvar–dekabr // https://stat.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari. Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar faoliyati, 2025-yil yanvar–sentabr // https://stat.uz.
12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, 2025-yil yanvar–sentabr // https://stat.uz.
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari. O‘zbekiston aholisi 38,2 mln dan oshdi (2026-yil 1-yanvar holatiga) // https://stat.uz.
14. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi, 2025-yil yanvar–dekabr // https://www.buxstat.uz.
15. Sanoat zonalaridagi asosiy muammo hal etiladi // Yangi O‘zbekiston. - 31.05.2021 // https://yuz.uz/uz/news/sanoat-zonalaridagi-asosiy-muammo-hal-etiladi.
16. United Nations Statistics Division. SDG indicator metadata. Indicator 9.b.1: Proportion of medium and high-tech industry value added in total value added. - 2024 // https://unstats.un.org/sdgs/metadata/files/Metadata-09-0B-01.pdf.
17. Sanoat zonalarini rivojlantirish choralari muhokama qilindi // Yangi O‘zbekiston. - 26.05.2022 // https://yuz.uz/uz/news/sanoat-zonalarini-rivojlantirish-choralari-muhokama-qilindi.